

**2019-yil**

**2018 - 2019 – O'QUV YILIDA O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING**

**6 - SINF O'QUVCHILARI UCHUN BOTANIKA FANIDAN  
MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN**

**IMTIHON JAVOBLARI**

**BOTANIKA**


# 6-SINF BIOLOGIYA FANIDAN IMTIHON SAVOLLARIGA JAVOBLAR

## 1-bilet

### 1. Tabiatda o'suvchi qanday dorivor o'simliklar haqida bilasiz ?

Tabiatda o'suvchi dorivor o'simliklar dorivor o'simliklarga – chakanda, isiriq, na'matak, suvqalampir, zubturum kiradi. Dorivor o'simliklar – odamlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun ishlatalidi. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. O'zb.da 700 dan ortiq dorivor o'simliklar turi mavjud.

### 2. Quyidagi rasmni izohlab bering.



Piyozning shaffof yupqa pardasidan preparat tayyorlash ancha oson buning uchun, uning etli qobig`idan yupqa shaffof pardasi ajratib olinadi. Va buyum oynaidagi 1tomchi suvgaga qo`yiladi. So'ngra uni mikroskop ostida ko'rildi. Hujayralar o'simlikning qasi qismida joylashganligi bilan bir-biridan farq qiladi, bazi hujayralar ovalsimon, yumoloq, ko`pburchakli, naysimon, to`g`rito`rtburchakli, tuksimon va boshqa shakkarda bo'ladi. Piyoz po`sti hujayralari shaklining cho`ziqligi, bir-biriga zinch joylashganligi va plastidalarining rangsizligi bilan boshqa o'simlik hujayralaridan farq qiladi.

## 2-bilet

### 1. O'simliklar qanday hayotiy shakllarga ega?

O'simliklarning tashqi muhitga har xil shaklda moslashishi hayotiy shakl deyiladi. **Daraxtlar** – tanasi yog'ochlashgan, asosan, bitta yo`g'on tanali baquvvat ildiz va keng shox-shabbali, baland bo'yli ko'p yillik o'simliklardir. Bular guli, mevasi, poyasiningeni, bo'yisi, shox-shabbasi va bariglari bilan bir-birdan farq qiladi. Masalan: olma, o'rik, yong'oq va shaftolining shox-shabbasi yoyiq. Qarag'ay va terakniki g'ujva tik. Shamshod va sadaqayrog'ochniki sharsimon bo'ladi. **Butalar** – bir nechta yog'ochlashgan poya- tanaga ega ko'p yillik o'simlik. Ildizdagi qo'shimcha kurtaklardan yangi yosh novdalar o'sib chiqadi. Bularga – irg'ay, singirtak, na'matak, zirk, bodomcha, uchqat, anor, limon, qoraqat, ligustrum, nastarin kiradi. **Yarimbutalar** – poyasining pastki qismi yog'ochlashgan, yuqori yashil qismi qishda sovuq urib ketadigan ko'p yillik o'simlik. Cho'llarda keng tarqqalgan izen, keyreuk, teresken, sarsazan va shuvoq. **Ko'p yillik o'tlar** – yerusti qismi qishda qurib, o'sish kurtaklari tuproq ostida qishlaydigan o'simliklar. Bularga beda, ajriq, g'umay, sachratqi, piskom piyozi, kiyiko't, sallagul, qoqio't, shirinmiya, iloq, lola, qamish, andiz, yalpiz, kovrak, gulsafsar kiradi. **Ikki yillik o'tlar** – birinchi yili urug'dan ko'karib chiqib, vegetativ organlar hosil qiladigan, ildizi va barglarida oziq moddalar to'playdigan o'simliklar. Ikkinchchi yili gullab meva tugadi. Bularga lavlagi, sabzi, sholg'om, sigirquyruq va h.z. kiradi. **Bir yillik o'tlar** – bir yil ichida urig'idan unib chiqib, o'sadi, gullab meva tugib, o'z hayitini tugatadi. Bularga yovvoyi oq sho'ra, jag'-jag', machin, qora ituzum, baliqko'z, ma'daniy g'o'za, bug'doy, arpa, zig'ir, yeryong'oq, mosh, no'xat,,, sholi, pomidor, qalampir, qovun, tarvuz, rayhon va h.z. kiradi.

### 2. Urug'larning nafas olishini tajribada kuzatish.

Kerakli jihozlar: undirilgan urug' solingen shisha idish, sham, termometr, qog'oz, paxta, toza quruq latta.

1. Bitta shisha idishga undirilgan urug' solib, ichiga yonib turgan sham tushirilsa, u yonishda davom etadi. Sababi idishdagi havoda kislorod bor. So'ngra urug'li idishning og'zi mahkam berkitilib, uni issiq joyga qo'yiladi. Oradan 2-3 kun o'tgach unga yonib turgan sham tushirilsa o'chib qoladi. Demak unayotgan urug' havodan kislorod yutib, karbonat angidrid ajratar ekan.

2. Urug'lar nafas olganda issiqlik ajratadi. Buni bilish uchun urug' undirilayotgan bankaga termometr joylashtirib, issiqliknini saqlab qolish uchun banka qog'oz, paxta va ustidan toza quruq latta bilan o'raladi. Bir necha soatdan keyin idish ichidagi harorat ko'tariladi.

### 3-bilet

#### **1. Qovoqdoshlar oilasining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?**

Qovoqdoshlar — ikki urug'pallali o'simliklar oilasi. Bir yillik va ko'p yillik o'rmalab yoki ilashib o'suvchi, bir yoki ikki uyli o'simliklar. Bitta turkumi daraxtsimon. Barglari oddiy, navbatlashib o'rnashgan, ba'zan bo'laklarga bo'lingan yoki o'yilgan. Yonbargchalar bo'lmaydi. Gullari barg qo'ltig'ida bittadan yoki to'p bo'lib joylashadi, bir jinsli, ko'pincha tutash tojbargli. Mevasi rezavor yoki qovoq (tashqi qavati qattiq, dag'al, ichi etli sersuv, serurug'), 100 ga yaqin turkumi, 900 turi ko'pincha tropik va subtropiklarda o'sadi. Ko'p turlarining mevasi ovqatga ishlataladi. Shu sababdan bir qancha turlari (bodring, qovun, qovoq, tarrak, tarvuz va boshqalar) hamma qit'alarda palakli ekin sifatida qadimdan ekiladi. Ayrim turlari (abujahl tarvuzi, sirtan) dorivor, manzarali turlari (eshakbodring, pechakqovun va boshqalar) ham bor.

#### **2. Kurtakning ichki tuzilishini lupa yordamida kuzatish.**

Kerakli jihozlar: lupa, skalpel, bir nechta yirik kurtaklar.

Yirik kurtaklardan bir nechtasini uzunasiga kesib, lupa ostida ko'ramiz. Bunda boshlang'ich poya, boshlang'ich barg va qobiqni ko'ramiz. Kurtagi ko'rilgan o'simlikning nomini, kurtak shaklini, va o'lchamlarini yozib olamiz.

### 4-bilet

#### **1. Kurtaklar nima uchun boshlang'ich novda deyiladi?**

Kurtak - bu boshlang'ich novda vegetativ kurtak o'simliklarning bohlang'ich bargli novdasidir. Generativ kurtak esa boshlang'ich to`pgul yoki guldir. Kurtak odatda mayda yirik va turli shakilda bo'ladi. Terak kurtagi yirik, tutni kurtagi mayda bo'ladi. Novdaning uchida joylashgan kurtaklar uchki kurtak, yonida joylashgani yon kurtak va qo`shimcha kurtak ham bo'ladi.

#### **2. Archa va oddiy qarag'ayning qubbali shoxchalaridan olib, ulardagi asosiy belgilarni aniqlab, taqqoslang.**

Ochiq urug'li o'simliklar bo'limi daraxt va butalardan tashkil topgan. Ular urug'laridan ko'payadi. Ochiq urug'li o'simliklarning urug'lari guli o'simliklarnikiga o'xshash meva ichida yopiq holda emas, balki qubbalarining tangachalarida ochiq holda yetishadi. Shuning uchun ham ular ochiq urug'li o'simliklar deyiladi. Ochiq urug'li o'simliklarga misol qilib archa, saur, qarag'ay va qoraqarag'ay, sekvoyadendron ni keltirish m-n. Yopiq urug'li o'simliklar olamining boshqa guruhlariga qaraganda har taraflama ancha murakkab tuzilgan. Ular gulli o'simliklardir. Haqiqiy gul esa yopiq urug'lilardan boshqa o'simik guruhlarining hech birida bo'lmaydi. Yopiq urug'li o'simliklarda urug'kurtak ochiq urug'lilardagiga o'xshash qubba tangachalari ustida ochiq holda emas, balki urug'chining tugunchasi ichida, tuguncha devori bilan o'ralgan holda yetishadi.

### 5-bilet

#### **1. Meva va urug'lar qanday yo'lar bilan tarqaladi?**

Tabiatda o'simliklar meva va urug'lari shamol, hayvonlar, qushlar, hashorotlar, suv yordamida tarqaladi. Ko'pchilik yovvoyi va madaniy o'simliklar odamlar ishtirokida tarqatiladi va ko'paytiriladi. Meva va urug'larning tarqalishi ularning tuzilishiga bog'liq. Meva va urug'larini o'z kuchi bilan tarqatadigan o'simliklarga avtoxor o'simliklar deyiladi. Bularga xina, dukkakli o'simliklar, burchoq, o'qotar, yorongul kiradi. Terak, tol, qoqio't, qo'g'a shamol yordamida uchib tarqaladi. Qayrag'och, shumtol, saksovul, cherkez, boyalish, baliqko'z, zarang, rovoch, jud ka'bilar qanotchalari yordamida bir joydan ikkinchi joyga tarqaladi. Ayrim o'simliklar suv o'tkazmaydigan qobiqqa ega bo'ladi, ular suvda tarqaladi. Bularga nilufar, g'umay, kurmak, machin, qo'ypechak, zarpechak, zubturum, qurttana kiradi. Hayvon va qushlar meva va urug'larni iste'mol qilib, tezagi orqali boshqa joyga tarqatadi.

## 2. Ushbu rasmdagi o'simliklarning o'zaro o'xshashliklarini aniqlang. \



Bosh piyoz – pizyoz turkumiga mansub ko'p yillik o't. Gul poyasi 100 sm gacha yetadi, qalin, yarmidan pastki qismi shishgan. Barglari ham shishgan. To'pgul (soyabon)i sharsimon, gullari zich joylashgan. Gulbandi gulqo'rg'onдан bir necha marta uzun. Gulqo'g'oni yulduzsimon oqish yashil rangli. Changchisi 6 ta. Bosh piyoz may-iyunda gullab , mevasi iyulda pishadi.

Dorivor qoqio't – ko'p yillik o't. Uni vohalardagi o'simlik o'sa oladigan har qanday yerda uchratish mumkin. Poyasi juda kalta. Gullari gulpoyaning uchida o'rashgan savatchalarda joylashgan. Qoqio'tlarning mevasi - pista meva. Uning uchiga o'rashgan popukchasi bor.

### 6-bilet

#### 1. Ra'nodoshlar oilasiga qanday o'simliklar kiradi?

Ra'nodoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklar: tobulg'i, olcha, na'matak, olma, olxo'ri, bodom, nok, shaftoli, kamxastak, gilos, qulupnay, maymunjon. Bu oilaga Shimoliy Yarimsharning mo'tadil iqlimli mintaqalarida o'sadigan 3000 ga yaqin turdag'i daraxt, buta va ko'p yillik o'tlar kiradi

#### 2. Kurtakning ichki tuzilishini lupa yordamida kuzatish.

Kerakli jihozlar: lupa, skalpel, bir nechta yirik kurtaklar.

Yirik kurtaklardan bir nechtasini uzunasiga kesib, lupa ostida ko'ramiz. Bunda boshlang'ich poya, boshlang'ich barg va qobiqni ko'ramiz. Kurtagi ko'rilgan o'simlikning nomini, kurtak shaklini, va o'lchamlarini yozib olamiz.


### 7-bilet

#### 1. O'simliklarga qanday ekologik omillar ta'sir qiladi ?

Tashqi muhitning o'simlik hayot faoliyatiga tasir etuvhi ayrim tarkibiy qismiga ekologik omil deyiladi. U 2 ga bo`linadi abiotik va biotik. Abiotik omillarga o'lik tabiat tarkbiy qismlari kiradi. Bunga tuproq ,suv harorat, yorug`lik kabilar.Biotik omillariga esa bakteriyalar, zamburug`lar kiradi.o'simlikda suv 60-90%ni tashkil etadi. Yorug`likka qarab, soyasevar va yorug`sevar

o'simliklarga bo'linadi. Ba'zi o'simliklar boshqa o'simliklarga zamin yaratsa, devpechak, zarpechak, shumg`iya kabi o'simliklar boshqa o'simliklarga zarar yetkazadi.

## 2. Rasmni izohlang.



1 – ustki po'st (epiderma); 2- ustunchaga o'xshash cho'ziq hujayralar; 3 – ovalsimon hujayralar; 4 - ostki po'st (epiderma); 5,6,7- o'tkazuvchi nay boyamlari; 8- og'izcha.

## 8-bilet

### 1. O'simlik to'qimalari qanday turlari bor?

Shakli kelib chiqishi, funksiyasi bir xil bo`lgan hujayralar to`plami to`qima deyiladi. 1682-yil N.Gryu to`qima tushunchasini fanga kiritdi. Turlari: Hosil qiluvchi, qoplovchi, asosiy, ajratuvchi,o'tkazuvchi to`qimalar.Hosil qiluvchi to`qima hayvonlarda bo`lmaydi.o'simlikning turli qismlarida joylashgan.Bu o'simlikning eniga va bo`yioga o'sishini ta`minlaydi.Asosiy to`qimaning eng muhim vazifasi fotosintez jarayonini amalga oshiradi.Uning tarkibi assimilatsiyalovchi ,suv saqlovchi,g`amlovchi to`qimalar bor.bu to`qima parenxima yoki xlorenxima deb yuritiladi.G`amlovchi to`qima fotosintez jarayonida hosil bo`lgan moddalarini jamg`aradi.cho'l o'simliklarida rivojlangan bo`ladi.qoplovchi to`qima 3ga bo`linadi.epiderma periderma va po'stloq. Expedirma gazlar almashinishida, kasal hujayralarning sog` to`qimaga kirmasligi hamda o'simlikni tashqi muhitdan saqlashda qatnashadi. Bu poya va ildizlarda ko`p uchraydi. O'tkazuvchi to`qima o'simlik tanasidagi ozuqa moddalarini harakatini taminlaydi ya'ni ildizdan bargga yoki bargdan ildizga qarab. Mexanik to`qima o'simlikka tayanch ya'ni mustahkamilik beruvchi qalin qobiqli tirik va o`lik hujayralardan iborat to`qima hisoblanadi. Ajiratuvchi to`qima tuzilishi va iqtisoslashgan tarkibi har xil bo`lganhujayralardan hosil bo`lgan bu hujayra vakuollarida efir moylari, kauchok, balzam va smolalar to`planadi. Demak, o'simliklardagi ortiqcha moddalarbu to`qima orqali tashqariga chiqarib turadi.

### 2. Kurtakning ichki tuzilishini lupa yordamida kuzatish.

Kerakli jihozlar: lupa, skalpel, bir nechta yirik kurtaklar.

Yirik kurtaklardan bir nechtasini uzunasiga kesib, lupa ostida ko'ramiz. Bunda boshlang'ich poya, boshlang'ich barg va qobiqni ko'ramiz. Kurtagi ko'rilgan o'simlikning nomini, kurtak shaklini, va o'lchamlarini yozib olamiz.

## 9-bilet

### 1. Meva qanday qismlardan iborat?

Mevalar asosan 2xil bo`ladi: agar u tugunchaning o`zidan hosil bo`lsa,chin meva(o`rik, olcha,shaftoli,)agar mevaning shakllanishida tugunchadan tashqari gulning boshqa qismlari ham ishtirok etsa,soxta meva(olma,nok,behi)deyiladi. Meva 3 qismdan tashkil topgan. Po'st, meva eti va mag`izidan iborat. Ho'l mevalar rezavor mevalar,qovoq va danakli mevalarni o'z ichiga oladi. Quruq mevalar esa chatnaydigan va chatnamaydiganlarga bo`linadi.Chatnamaydiganlarga donlar kiradi. Chatnaydiganlarga ko`sak,dukkak, qo`zoq va qo`zoqcha kiradi.

## **2. Poyada moddalarining harakatini tajribada kuzatish.**

Tajribada ko`rish uchun barg chiqqargan novda yoki ochilib turgan gullardan foydalanish mumkin. Agra berilgan rangli suvga daraxtning bargli novdasini solib qo`yib, 2- soatdann keyin ko`ndalangiga va uzunasiga kesilsa, rangli suv novda bo`ylb yuqoriga ko`tarilganligi sababli yog`ochlik qism bo`yalganini ko`rish mumkin. Demak, oziq moddalar elaksimon lubda harakatlanadi.

### **10-bilet**

#### **1. Ochiq urug'li o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? ]**

Ochiq urug'li o'simliklar bo`limi daraxt va butalardan tashkil topgan. Ular urug'laridan ko`payadi. Ochiq urug'li o'simliklarning urug'lari guli o'simliklarnikiga o'xshash meva ichida yopiq holda emas, balki qubbalarning tangachalarida ochiq holda yetishadi. Shuning uchun ham ular ochiq urug'li o'simliklar deyiladi. Ochiq urug'li o'simliklarga misol qilib archa, saur, qarag'ay va qoraqarag'ay, sekvoyadendron ni keltirish m-n. Yopiq urug'li o'simliklar olamining boshqa guruuhlariga qaraganda har taraflama ancha murakkab tuzilgan. Ular gulli o'simliklardir. Haqiqiy gul esa yopiq urug'lillardan boshqa o'simik guruuhlarining hech birida bo'lmaydi. Yopiq urug'li o'simliklarda urug'kurtak ochiq urug'lillardagiga o'xshash qubba tangachalari ustidaochiq holda emas, balki urug'chining tugunchasi ichida, tuguncha devori bilan o'ralgan holda yetishadi.

#### **2. Ildiz tuklarini mikroskopda kuzatish.**

Ildiz tukchalarini mikroskop ostida ko`rish uchun ildiz po'stidan yupqa preparat tayyorlanadi. Buning uchun ildiz bo'laklaridan ko`ndalangiga yupqa parraf kesib olib, buyum oynasidagi suv tomchisiga yoki glitseringa qo'yiladi. So'ngra unga rang beriladiva ustiga qoplovchi oyna yopib qo'yiladi. Mikroskopda ildizning sitrqi qismi ujayralardan tuzilganligini va shu hujayralarning ayrimlaridan ildiz tukchalari chiqqanligini ko`rish mumkin. Ma'lumotlaga qaraganda 1 tup ildiz tukchalari bir biriga ulab chiqilsa uzunlig 20 kmgacha yetadi. Har bir ildiz tukchasi 1ta uzun hujayradan iborat. Bu hujayra esa qobiq, sitoplazma va mag'izdan iborat. Ildiz tukchalar tuproqdan oziq moddalarni shimb oladi. Ularning faoliyati 10-20 kun davom etadi. U bo`linuvchi qismdan hosil bo`ladi.

### **11-bilet**

#### **1. Topgullar va ularning turlari.**

Agar 1 ta umumiyoq bandda bir nechta gul joylashgan bo`lsa, unga to`p gul deyiladi. To`pgullar hilma- hil bo`ladi. Masalan, so`ta, shingil, kuchala, soyabon, ruvak, savatcha, kallak va boshqalar. Olma nok, gilosningto`p guli oddiy qalqonsimon bo`ladi. Zubturumming mayda gullari uzun gul poyada bandsiz joylashadi va bunga oddiy boshoq diyiladi. Karam rediska, jag`-jag` va qurt tananining gullari to`pgul, gul poyaga uzun bandi bilan ketma-ket birlashgan. Buni oddiy shingil deydi. Sabzi ukrop, petrushka, shashir va bodiyomning to`pguli murakkab soyabonga ega. Tok, sholi, qamish nastarin kelin supurgi otquloq rovoch kabi o'simliklar murakkab shimgil - ruvak hosil qiladi. Yong`oq, oqqayin va tolning to`p guli kuchala hisoblanadi. Kungaboqar, kartoshga gul shuvoq, butako`z, sachratqi, karraklarning to`p guli savatcha hisoblanadi.

#### **2. Quyidagi rasmda qanday jarayon aks etgan va uni tushuntirib bering.**



### **86-rasm. Yo'sinlarning hayot sikli:**

1 – poya bargli o'simlik; 2 – anteridiy; 3 – arxegoniy; 4–5 – sporofitning rivojlanishi; 6 – sporangiy va sporalar; 7–8 – yashil ipchalar; 9 – poya bargli o'simlik; 10 – urug'lanish.

### **12-bilet**

#### **1. O'simlik hujayrasi qanday asosiy qismlardan iborat?**

Hujayra hujayra qobig'i, sitoplazma va yadrodan tashkil topgan. *Hujayra qobig'i* klechatkadan iborat bo'lib, tiniq va mustahkam bo'ladi. U hujayrani tashqi ta'sirdan himoya qiladi va shaklini saqlab, tashqi muhit bilan bog'lab turadi. *Sitoplazma* - hujayraning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u rangsiz tiniq, suyuq yoki shilimshiq holda bo'lib, doim harakatlaniq turadi. *Yadro* – hujayraning eng muhim tarkibiy qismi. U hujayralar bo'linishida katta rol o'yaydi.

#### **2. Urug'larning nafas olishini tajribada kuzatish.**

Kerakli jihozlar: undirilgan urug' solingen shisha idish, sham, termometr, qog'oz, paxta, toza quruq latta.

1. Bitta shisha idishga undirilgan urug' solib, ichiga yonib turgan sham tushirilsa, u yonishda davom etadi. Sababi idishdagi havoda kislorod bor. So'ngra urug'li idishning og'zi mahkam berkitilib, uni issiq joyga qo'yiladi. Oradan 2-3 kun o'tgach unga yonib turgan sham tushirilsa o'chib qoladi. Demak unayotgan urug' havodan kislorod yutib, karbonat angidrid ajratar ekan.

2. Urug'lar nafas olganda issiqlik ajratadi. Buni bilish uchun urug' undirilayotgan bankaga termometr joylashtirib, issiqliknini saqlab qolish uchun banka qog'oz, paxta va ustidan toza quruq latta bilan o'raladi. Bir necha soatdan keyin idish ichidagi harorat ko'tariladi.

### **13-bilet**

#### **1. Barglarning suv bug'latishi qanday ahamiyatga ega?**

O'simliklar hayotidagi muhim jarayonlardan biri bu suv bug'latishdir buni kuzatish uchun gultuvakkagi o'sib turgan o'simliklardan birining bargli novdasini kolbaga solib, og'zi paxta bilan berkitiladi. Oradan bir necha soat o'tgach kolba devorida suv tomchilari hosil bo'lganini ko'rish mumkin. Bu o'simliklar bargidan bug' shaklida ajralgan suvdir.


#### **2. Rasmlarda keltirilgan vegetativ ko'payish turlarini asoslab bering.**



Kartoshkani  
tugunagidan  
ko'paytirish



Tokni parxish  
yo'li bilan  
ko'paytirish



Tokni qalamchadan  
ko'paytirish



Tradeskan-  
siyani  
novdasidan

#### 14-bilet

##### 1. O'simliklar tabiatda qanday vegetativ usullarda ko'payadi?

Ayrim qoraqat, terak, namatak, olvoli, shirinmiyya kabi o'simliklarning ildizidagi kurtaklarda yangi novdalar hosil bo'ladi. Bu novdalar ildiz bachkisi deyiladi. Kelgusida shu bachkilarda yangi mustaqil o'simlik yetiladi. Anjir, anor, tok, terak, qoraqat, jiyda, atirgul hamda issiqxonalarda ko'paytiriladigan gullarning aksariyat qismi qalamchasidan ko'paytiriladi. O'simliklar vegetativ yo'l bilan ko'payib, tabiatda o'z turini saqlab qoladi. Vegetativ ko'payish o'simliklarni rivojlanishini taminlaydi.

##### 2. Quyidagi jarayonlarni yoritib bering



Barglar bandining novdada birikkan joyida po'kak hosil bo'ladi. Po'kak hosil bo'lishi barglarning to'kilishidan darak beradi. Barglarning to'kilishida suv bug'atishning ahamiyati katta. Birinchidan, to'kiladigan barglar orqali bir yil davomida o'simliklarda to'planib yotgan keraksiz moddalar chiqarib tashlanadi, ikkinchidan, ayniqsa qishda, barglar orqali suv bug'lanishi to'xtaydi. O'simlik tinim davriga o'tadi.

#### 15-bilet

##### 1. Barglarning qanday shakllari farq qilinadi?

O'simliklarning barglari tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi. Barg bandida bitta barg yaprog'I joylashsa bunday barg oddiy barg deyiladi. Bularga olma, nok, o'rik, shaftoli, tut, tok, terak, yantoq, g'o'za, rovoch kiradi. Bitta barg bandida bir nechta bargchalar bandchalari orqali joyashsa murakkab barg deyiladi. Bularga soxta kashtan, yong'oq, na'matak, shirinmiya, beda, qulupnay, loviya, no'xat, yeryong'oq kiradi. Barglar yaprog'inining shakliga qarab yumaloq,

panjasimon, tuxumsimon, ovalsimon, yuraksimon, nashtarsimon, qalami, rombsimon, uchburchaksimon va h.z. bo'ladi.

## **2. Loviya va bug'doy o'simligi urug'larini tuzilishini o'rganish.**

Kerakli jihozlar: loviya va bug'doy solingen idish, suv, qipiqliq solingen shisha banka.

1. Loviya urug'inining tuzilishini o'rganing: loviya ikki urug'pallali o'simliklar sinfining burchoqdoshlar (dukkakdoshlar) oilasiga mansub. Shakli buyraksimon, qalin po'st bilan qoplangan, 2 ta urug'palladan iborat. Tarkibida 40% oqsil moddasi bor.
2. Bug'doy donining tuzilishini o'rganing: bug'doy bir urug'pallali o'simliklar sinfining bug'doydoshlar oilasiga mansub. Shakli cho'ziq, sirti yupqa sariq po'st bilan qoplangan. Bu po'st qo'shilib o'sgan 2 ta qobiqdan iborat. Tashqisi meva qobig'I, ichkisi urug' po'sti hisoblanadi. Urug'ning aksariyat qismi endosperma-oziq moddalar to'plamini tashkil etuvchi hujayralardan iborat.
3. Loviya urug'i va bug'doy donining tuzilishini taqqoslang
4. Loviya urug'i va bug'doy donini suv bilan namlangan qipiqliq solingen shisha bankaga joylashtirib, vaqtin – vaqtin bilan namlab turing
5. Har kuni unayotgan urug'dan bittadan olib quritib qo'ying.
6. 10-12 kundan so'ng tajribani yakunlab, urug' unishini va undan nish rivojlanishini kuzating.

## **16-bilet**

### **1. Gulxayridoshlar oilasiga mansub o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nimalardan iborat?**

Gulxayrdoshlar oilasiga mansub o'simliklardan biri yer bag'ir tugmachaguldir. Unung quritilgan bargi, guli va urug'i xalq tabobatida ichni yumshatuvchi dori sifatida ishlatiladi. Dorivor gulxayrining ildizidan tayyorlangan damlama ilmiy tabobatda yo'talga qarshi ishlatiladi. G'o'za – barchamiz bilgan tolali o'simlikdir uning inson hayotidagi o'rni juda katta. Undan yengil sanoatda keng foydalilanadi. Undan tashqari oziq-ovqat sifatida ishlatiladigan turlari ham, bor. Gulxayridoshlarga mansub tolali o'simliklardan yana biri bo'ritaroq turkumiga mansub kanopdir. Undan arqon, qop, gazlama tayyorlanadi.

### **2. Maktab tajriba maydonida o'suvchi o'simliklarning barg shakllarini o'rganish.**

O'simliklarning barglari tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi. Barg bandida bitta barg yaprog'I joylashsa bunday barg oddiy barg deyiladi. Bularga olma, nok, o'rik, shaftoli, tut, tok, terak, yantoq, g'o'za, rovoch kiradi. Bitta barg bandida bir nechta bargchalar bandchalari orqali joyashsa murakkab barg deyiladi. Bularga soxta kashtan, yong'oq, na'matak, shirimmiya, beda, qulupnay, loviya, no'xat, yeryong'oq kiradi. Barglar yaprog'inining shakliga qarab yumaloq, panjasimon, tuxumsimon, ovalsimon, yuraksimon, nashtarsimon, qalami, rombsimon, uchburchaksimon va h.z. bo'ladi

## **17-bilet**

### **1. Urug' tarkibida qanday moddalar bor?]**

O'simliklarning turiga qarab urug'ning tarkibi har xil bo'ladi. Urug' tashqaridan quruq bo'ib ko'rinishiga qaramay, uning tarkibida oz miqdorda suv bo'ladi. Urug'lar tarkibidagi organik moddalar turli birikmalar shaklida bo'ladi. Bularga kraxmal, oqsil va moylar kiradi. Bug'doy, makkajo'xori va boshqa donli o'simliklar urug'ida kraxmal nihoyatda ko'p bo'ladi. Loviya, mosh va no'xatda oqsil ko'p uchraydi. Yong'oq, bodom, o'rik, shaftoli va yeryong'oq mag'zida, kungaboqar pistasi va g'o'za chiitida moy ko'p bo'ladi. Ayrim urug'lar tarkibida efir moylari (zira, shivitda) va zaharli moddalar (mastak, achchiq bodom, shaftoli va kampirchoponda) saqlanadi.

## **2. Olma, namatak, qulupnay o'simliklarini olib ularning barglaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang.**

Na'matak. Bargi – murakkab, toq patsimon, 5-9 yaproqchali. Olma. Bargi – oddiy, patsimon tomirlangan, novdada navbat bilan joylashadi. Qulupnay. Bargi – murakkab, uch bargchali, panjasimon tomirlangan.

### **18-bilet**

#### **1. O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitob»iga kiritilgan o'simliklar haqida ma'lumot bering.**

O'zb Res "Qizil kitob" I 1984-yil nashr etilgan. Eski nashriga 163 tur, yangi nashriga 301 tur o'simlik kiritilgan. "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklar – anzur piyoz, hiyol, holmon, xurmo, shirach, sallagul, burma qora, gulsafsa, drobov tanga o't, zafaron, lola, marmarak, navro'zgul, oqtoj, otestogiya, oq parpi va h.z.

#### **2. Bosh piyozning piyozini ichki tuzilishini o'rganish.**

Bosh piyoz kurtak singari, tashqi tomondan quruq qobiq bilan o'ralsan. Bu qobiq uni yozda issiqdan va qishda sovuqdan saqlaydi. Agar u uzunasiga kesib qaralsa, tubida qisqargan kaltapoyacha borligini ko'rish mumkin. Piyozning tubidagi kalta poyacha asosidan pastga qarab qo'shimcha mayda ildizlar, yuqoriga qarab esa serat barglar, gulbandlar o'sibchiqadi, ular o'rtasida esa kurtaklar joylashadi. Piyozning ana shu seret barglari shakli o'zgargan barglar bo'lib, ular hujayralarida oziq moddalar to'planadi.

### **19-bilet**

#### **1. Shakli o'zgargan yer osti novdalarning qanday shakllari bor?**

Shakli o'zgargan yerosti novdlar o'simliklarni noqulay tashqi muhitdan saqlaydi, o'zida ko'p miqdorda oziq moddalar to'playdi va vegetativ ko'payishi uchun xizmat qiladi. Bularga piyozbosh, tugunak va ildizpoyalar kiradi. Shakli o'zgargan yer osti novdali o'simliklarga bosh piyoz, sarimsoq piyoz, anzur piyoz, lola va boychechak kiradi. Tuproq ostida piyoz hosil qiladigan o'simliklar piyozboshli o'simliklar deyiladi. Tugunak o'simliklaga kartoshka, shoyigul, batat, ildizpoyali o'simliklarga esa g'umay, qamish, ajriq, yalpiz, gulsafsa, shirinmiya kiradi. Tugunklardagichuqurchalarda – ko'zchalarida kurtaklar jaylashganligi bilan boshqa yerosti novdalardan farq qiladi. Ildizpoyalarda qo'shimcha ildiz, shakli o'zgargan barg va kurtaklar bo'ladi.

#### **2. Hujayralarning xilma-xilligini ko'rish uchun o'simliklarning turli organlaridan preparat tayyorlash.**

Hujayralar o'simlikning qasi qismida joylashganligi bilan bir-biridan farq qiladi, bazi hujayralar ovalsimon, yumoloq, ko'pburchakli, naysimon, to`g`rito`rtburchakli, tuksimon va boshqa shakllarda bo`ladi. Piyoz po'sti hujayralari shaklining cho`ziqligi, bir-biriga zinch joylashganligi va plastidalarining rangsizligi bilan boshqa o'simlik hujayralaridan farq qiladi. Hujaralar orasida yiriklariyam bo`ladi. Masalan: chigit tolasining bitta hujayrasi 3-4 smga yetadi.

### **20-bilet**

#### **1. Ituzumdoshlар oilasi vakillari mevasining tuzilishi haqida ma'lumot bering.**

Ituzumdoshlар oilasi vakillarining mevasi rezavor yoki ko'sakcha

#### **2. Maktab hovlisida o'suvchi o'simliklarning gullari misolida gul tuzilishini o'rganish.**

Misol tariqasida. Atirgul. Uzunligi 1-2 metr keladigan poyasi, ko'p tikanli, ser shox buta. Barglari murakkab to'q patsimon, 5-9 yaproqchali. May oyalaridan gullashni boshlaydi. Gullari yirik diametri

10 sm bo`lishi mumkin, rangi, oq, qizil, pushti ranglarda bo`lishi mumkin. Gul kosacha va gultoji 5 tadan. Gulida juda ko`p changchi va urug`chilar bor. Hozirgi vaqtda yer yuzida atirgullarningnavi 10000 ga yaqin. O`zbekistonda 340dan ortiq navi ekiladi.

## 21-bilet

### 1. Gullar qanday yo'llar bilan changlanadi?


Gullarning changlanishi chetdan changlanish, o'z-o'zidan changlanish, sun'iy changlanishga bo'linadi. Gullarning chetdan changlanishi. Ko'pchilik o'simliklar gulning changi va urug'chisi bir vaqtda yetilmaydi. Shuning uchun ham bitta guldagi chang shu guldagi tumshuqchani changlay olmaydi. Bunday holda bir gulning changi boshqa guldagi urug'chingning tumshuqchasiga tushishi kerak. Yetilib yorilgan changdondan chiqqan changning hashorotlar, shamol, suv, qushlar va o'zga vositalar yordamida boshqa gulning tumshuqchasiga tushishiga chetdan changlanish deyiladi. Gullar ochilgan vaqtda xushbo'y hid taratib hashorotlarni o'ziga jalb qiladi. Gullardan ular o'ziga kerak bo'lган narsa – chang va xushbo'y asal shirasi (nektar)ni oladi. Ular gullardagi chang va nektarni turli a'zolari yordamida olib o'tadi. Shunday o'simliklar borki ular faqat shamol yordamida changlanadi bunday o'simliklarning guli ko'rimsiz, mayda va hidsiz, changi yengil va k'op bo'ladi. Gullarning o'z-o'zidan changlanishi. Agar bir tup o'simlik changchisidagi chang shu guldagi urug'chingning tumshuqchasiga tushsa, bunday changlanish o'z-o'zidan changlanish deyiladi.

Sun'iy changlanish. Agar o'simliklarning guli odamlar tomonidan changlantiriladigan bo'lsa, uni sun'iy changlanish deyiladi. Sun'iy changlanishdan hosildorlikni oshirish va yangi navlarni yaratishda foydalilanadi

### 2. Rasmlarda qanday mevalar aks etgan? Ularga tarif bering.



Ko'sak meva  
(g'o'za)



Don meva  
(bug'doy)



Qo'zoqcha  
meva  
(jag'-jag')



Rezavor meva  
(ituzum)



Qo'zoq meva  
(qurttana)

## 22-bilet

### 1. Bir hujayrali yashil suvo'tlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

